



THE INFLUENCE OF MYSTICAL IDEAS ON THE POETRY OF MODERN TURKISH POET NURULLAH GENÇ

Foziljon Rajabov

Doctoral student, Tashkent State University of Oriental Studies
(Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: This article provides an analysis of modern Turkish literature, with an emphasis on the work of the outstanding poet and writer Nurulloh Genç, who occupies a significant place in the literary environment. His place of birth, childhood, entry into the literary community and the features of his poetic style are examined. Particular attention is paid to the themes of his poems, the internal experiences of the main character, his thoughts, feelings and emotional states, as well as their theoretical analysis. The poet's ability to express his ideas and feelings stands out, which is especially clearly manifested in his poetic works. The main themes of his poetry include love, pain, fantasy, death, consolation and loneliness, as reflected in excerpts from his poetry collections “*The Flowers Don’t Freeze*” (“Çiçekler üşümesin”), “*Let Me Burn*” (“Beni yakışına”), “*I intend to wish, may my prayer reach the arsha*” (“Dilek tutum okusun ahım arşa dokunsun”).

Key words: Nurullah Genç, Turkish poetry, love, spiritual experience, loneliness, sufism, lyrical hero.

ZAMONAVIY TURK SHOIRI NURULLOH GENÇ SHE’RIYATIGA
TASAVVUFİY G’OYALARNING TA’SIRI

Foziljon Rajabov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti

(Toshkent, Ozbekiston)

Аннотация: Mazkur maqolada zamonaviy turk adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoir va yozuvchi Nurulloh Gench va uning she‘riyati tadqiq etilgan. Uning tug‘ilib o‘sgan joyi, bolalik davri, ijodga kirib kelishi va she‘riyati haqida so‘z yuritiladi. She‘rlaridagi mavzu, lirik qahramonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘u, o‘y-fikrlari va qalb iztiroblari ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilinishiga e‘tibor qaratiladi. Shu bilan birga shoir she‘riyatida fikr va tuyg‘ularning o‘ziga xos mushtarak ifodasi xususida ham fikrlar bildirilgan. Nurulloh Gench she‘rlarining asosiy mavzusi hisoblangan ishq, dard, xayol, o‘lim, sog‘inch va yolg‘izlik kabi mavzularda yozilgan *“Gullar sovqotmasin”* (*“Çiçekler üşümesin”*), *“Meni yoqishingga”* (*“Beni yakışına”*), *“Niyat qildim o‘qisin, ohim arshga yetsin”* (*“Dilek tutum okusun ahım arşa dokunsun”*) nomli she‘riy to‘plamlaridan parchalar olinib tahlilga tortilgan.

Калит so‘zlar: Nurulloh Gench, turk she‘riyati, ishq, ruhiy kechinma, yolg‘izlik, tasavvuf, lirik qahramon.

Аннотация: В данной статье проведен анализ современной турецкой литературы, с акцентом на творчестве выдающегося поэта и писателя Нуруллоха Генча, занимающего значимое место в литературной среде. Рассматривается его место рождения, детство, вхождение в литературную общину и особенности его поэтического стиля. Особое внимание уделяется тематике его стихов, внутренним переживаниям главного героя, его мыслям, чувствам и эмоциональным состояниям, а также их теоретическому анализу. Выделяется умение поэта выражать свои идеи и чувства, что особенно ярко проявляется в его поэтических произведениях. Основные темы его стихов включают любовь, боль, фантазию, смерть, утешение и одиночество, как это отражено в отрывках из его поэтических сборников *“Пусть цветы не*

замерзнут” (“Çiçekler üşümesin”), “Пусть я сгорю” (“Beni yakışına”), “Я намереваюсь пожелать, пусть моя мольба достигнет арша” (“Dilek tutum okusun ahım arşa dokunsun”).

Ключевые слова: Нурулла Генч, турецкая поэзия, любовь, одиночество, суфизм, лирический герой.

Kirish.

Har bir davrning talab va istaklaridan kelib chiqib adabiy jarayonlar o‘zgarib boradi. Zamonaviy turk she’riyati ham devon adabiyotidan, ham Tanzimot davri adabiyotidan shakl va mazmun jihatidan farq qiladi. Bunda albatta xalqning ijtimoiy, ma’naviy va ma’rifiy holati muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga bir millatning uzoq yillik o‘tmishi davomida shakllanib rivojlangan badiiyati zamonaviy adabiyotda saqlanib qoladi. Zamonaviy she’riyat vakillaridan biri bo‘lgan Nurulloh Gench ijodida turk mumtoz va zamonaviy she’riyatining ifori ufurib turadi. Buning sababini shoir tug‘ilgan hudud adabiy muhiti bilan bog‘lash mumkin.

Asosiy qism. XX asrning 80-yillarida turk adabiyotiga o‘zining she’rlari bilan kirib kelgan yangi avlod turk she’riyati vakillaridan biri Nurulloh Gench 1960-yilda Turkiyaning Erzurum viloyati, Xuroson tumanida tavallud topdi. Shoir tug‘ilgan qishloq muhiti uning qalbida adabiyotga bo‘lgan muhabbat urug‘larini qadadi. Bu haqda shoir shunday deydi: “Bobom qishloqni qayta barpo qilganidan so‘ng mehmonxona quradi. Oqsoqollarimiz u yerni “qo‘nolg‘a” deyishardi. Qo‘nolg‘ada kitoblar bilan to‘ldirilgan kitob javoni bor edi... Dostonlar, devonlar, tarixiy va turli xildagi kitoblar bo‘lib, kechalari u yerda yig‘ilib ayniqsa, uzun qish kechalarida oylab kitob mutolaa qilishardi... Otam menga Qur‘on o‘qishni o‘rgatgandi. Siyрати Nabaviy, Hz.Ali janglari, Battol g‘ozi, Muhammadiylar¹, Go‘ro‘g‘li dostonlari, Karam va Asli, Emroh va Selvi hikoyalari, Oshiq Summani, Oshiq Shenlik hikoyalari esa qo‘nolg‘ada o‘qilardi. Shom namozidan keyin barcha qo‘nolg‘ada yig‘ilar, eshikdan kirilganda chapdan o‘ngga qarab bolalar o‘tirishardi. Bobom to‘rda o‘tirardi... U xonada biz o‘qish va ishlashning ahamiyatini, jamoa bo‘lishning

¹ Muhammad sallolohu alayhi vassallamning hayotlari, payg‘ambarliklari, ma’naviy shaxsiyatlari haqida yozilgan nasriy yoki nazmiy asar.

bir va barobar bo‘lishning ma’nosini tushundik.” [3, b.19] Bolalik davrlari haqida keltirgan yuqoridagi xotiralari shoirning ijodiga uning oilasi va qishlog‘idagi adabiy muhit ta’sirining katta bo‘lganligini bildiradi. Ijodkorning “Omuzlarimda Dünnya” (“Yelkalarimda dunyo”) nomli biografik asarida o‘zining tug‘ilib o‘sgan joyi, tabiati va manzaralari, u yerda yashovchi samimiy, oqko‘ngil insonlari haqida batafsil bayon etadi. Nurulloh Genchning ilm va san’atga bo‘lgan muhabbati ana shunday shakllanib boradi. Nurulloh Genchning otasi Sayfulloh Gench o‘g‘lining ziyoli, olim inson bo‘lib yetishishini istardi. Shoir maktab yoshiga yetganda uy qishloq maktabidan 5-6 chaqirim uzoqlikda bo‘lgani uchun uni sakkiz yoshida maktabga yuborishadi.

Boshlang‘ich va o‘rta maktabni o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy Xuroson tumanida o‘qidi. Maktabni a’lo baholarga tugatgan Nurulloh, litsey va universitet ta’limini Erzurumda davom ettirdi. Otaturk universiteti iqtisodiy va boshqaruv fanlari fakultetini tamomlab, 1984-yilda shu universitetda tadqiqotchi sifatida faoliyat boshladi. Boshqaruv va tashkiliy ishlar sohasida tadqiqotlar olib borib 1990-yilda fan doktori, 1995-yilda dotsent, 2001-yilda esa professor unvoniga sazovor bo‘ldi. 2003-yilda Kojaeli universitetiga ishga kirib 2010-yilda nafaqaga chiqdi. Istanbul tijorat universitetida ish boshladi. Bo‘lim boshlig‘i va dekan lavozimlarida ishladi. 2015-yilda Turkiya Markaziy banki majlis a’zoliciga saylandi. U hozirda ham faoliyatini davom ettirmoqda.

Natijalar va muhokamalar. Nurulloh Genchning she’riyat olamiga kirib kelishi yuqorida aytib o‘tilgandek, bolalik chog‘lariga to‘g‘ri keladi. Yoshligida eshitgan she’rlar va dostonlari uni ijod qilishga undaydi. 7-8 yoshlarida Yunus Emro g‘azallari, Karaja o‘g‘lon, Dadal o‘g‘li, Battol g‘ozi kabi she’r va dostonlarni yod olib o‘zi ham yoshlik davridanoq she’rlar mashq qila boshlaydi. O‘zining yozgan she’rlarini turli xil gazeta-jurnallar va she’riyat musobaqalariga berib boradi. 1978-yilda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tashkillashtirilgan she’riyat musobaqasida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Ayni shu litseyda o‘qiyotgan vaqtida ko‘plab she’rlar qalamga ola boshlaydi.

Nurulloh Genchning ijodiy hayotiga nazar tashlanadigan bo'lsa, u bugungi kungacha 23ta she'riy to'plam, 3ta roman, 1ta biografik asar nashr ettirgan.

Ijodkorning ilk she'rlar to'plami 1986-yilda "*Gullar sovqotmasin*" ("*Çiçekler üşümesin*") nomi bilan nashr etiladi. Ushbu to'plam 60ta she'rdan iborat bo'lib, bunda asosan 80-yillardan keyin yozilgan she'rlarni o'z ichiga oladi.

1999-yilda "*Huzning lolasidir dunyo*" ("*Hüzünün lalesidir dünya*") nomli she'riy to'plami bilan Turkiya Yozuvchilar uyushmasining "Yil shoiri" mukofotini qo'lga kiritadi.

Nurulloh Gench she'rlarining asosiy mavzusi ishq, dard, xayol, o'lim, sog'inch va yolg'izlik bo'lib, bu haqida shoirning o'zi bir suhbatida shunday deydi: "Mening she'rlarimda o'lim, ishq, ayriliq, yolg'izlik mavzulari mavjud. Chunki dunyo yolg'izliklar va ayriliqlar mamlakatidir. Aslida har inson har on yolg'iz bo'ladi, hatto odamlar ichida yoki uyida bo'lsa ham. Chunki ruh va tana ham yolg'izdir" [8, b.22]. Darhaqiqat, shoir ta'kidlaganidek inson har doim ayriliq va yolg'izlik hissini tuyib yashaydi. Ba'zan o'zi sevgan kishilaridan ayrilsa, ba'zan o'zining yoqtirgan narsalaridan ayrilishi mumkin. Bunday holatda kishining qalbida ilohiy ishq otashidan bir uchqun tushadigan bo'lsa, o'zini qo'yarga joy topolmaydi. O'zi xoli qolishga, tafakkur va tatabbur, yor visoli haqida o'ylashga o'tadi. Shunda atrofi to'la odam bo'lsa ham o'zini dunyodagi eng yolg'iz kishidek his qiladi. Dard chekadi, o'z-o'ziga sig'maydi. Bu dardini kimgadir to'kib qanday bo'lsa ham ichidan chiqazib biroz orom olishni xohlaydi. Ammo uni tushunadigan anglay oladigan kishi topilmaydi. So'ng qalamlar ishga tushadi va shoir qalbidagi dard birin-ketin qog'ozga turli ko'rinishdagi misralar bo'lib tusha boshlaydi. Nurulloh Gench ham ana shunday o'z dardiga malham bo'lishni she'riyatdan umid qilgan shoirlardan biri hisoblanadi. Uning "*Meni yoqishingga*" ("*Beni yakışına*") nomli she'ri lirik qahramonning yoriga yetishish uchun chekayotgan sog'inch, dard-alamlarini namoyon qiladi.

O esrarlı yangına bu can nasıl dayandı?

Sahile vurdu kalbim,su yandı,kum da yandı.

Bir mum gibi eriyip aktı uykusuzluğum,

Ölüme başkaldıran dertli uykum da yandı.

Tarjimasi:

U asrorli yong‘inga bu jon qanday chidadi?

Sohilga urdi qalbim suv yondi, qum ham yondi.

Bir sham kabi erib ketdi uyqusizligim,

O‘limga qarshi chiqqan dardli uyqum ham yondi.

Shoir o‘z boshidan kechayotgan holatni tasvirlar ekan, lirik qahramon tilidan undagi “asrorli”, ya’ni sirli yong‘inga jonining qanday qilib chidaganini so‘rash bilan she’rini boshlaydi. Bu o‘rinda jonini yoqqan yong‘inning sirli ekanligini aytish orqali uni qanday ekanligini tarifloymasligini, bu yong‘in oddiy emas, balki faqat o‘ziga ayon bo‘lgan yong‘inligiga urg‘u beradi. So‘ng ishq otashida yonib turgan qalb omon qolish uchun o‘zini sohilga uradi, lekin otash shu darajaga yetgandiki, sohildagi olovni o‘chirishi mumkin bo‘lgan suv ham qum ham yonib ketadi. She’riyatda suv asosan hayot, tiriklik, o‘zgaruvchanlikni ifodalab kelsa, qum esa sobitlik, vaqt o‘tishini ifodalaydi. Suv haqida “Suv dunyoga keltiruvchidir, tabiat tomirlarida unga hayot beruvchi qondir” deydi [7, b.7]. Uyqusiz qolgan oshiqning o‘sha uyqusizligi bir sham misoli erishni boshlab o‘limga qarshi chiqqan dardli uyqusining ham yonganini keltiradi. Oshiq hech narsadan orom topolmaydi. Uyqu ham u uchun dard bo‘lib qoladi. Dardning darmoni esa faqatgina yorga yetishish orqali bo‘ladi.

O‘lim mavzusida bugungi kungacha shoirlar tomonidan juda ko‘plab baytlar yozilgan. Ularning she’rlarida bu mavzu hayotning tugashi yoki bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish sifatida aks ettiriladi. Nurulloh Gench she’rlarida o‘lim mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan mazmunda, ya’ni “o‘lmasdan oldin o‘limni anglash”ni ifoda ettiradi. Uning “Zirqiroq” (“Sızı”) [5, b.53] nomli she’rida

Cellat, vur boynumu, tükensiz sızı

Gün gün ölüyorum ah çekmeyince...

Tarjimasi:

Jalld, chop bo‘ynimni, tugasin og‘riq

Har kun o‘lyapman oh chekolmasdan...

Misralari bilan boshlanuvchi she'rida lirik qahramonning yor ishqida yonib, iztirob chekib, qalb og'rig'idan ortiq chidolmasligini aytib jallodning qonli qilichidan yordam istaydi. Bunga sabab qilib oshiq har kun oh cheka olmasdan o'lishini keltiradi. Turk mumtoz adabiyotida oshiqning holiga tarjimon bo'lgan tushunchalardan biri "oh" tushunchasidir. "Oh"ning lug'atlarda birinchi ma'nosi nido, ikkinchi ma'nosi oshiqning ichki olamidagi g'am, qayg'uni tashqariga chiqarishni bildiradi. Adabiyotda ba'zan nido, ba'zan oshiqning dardini ifodalashga vosita bo'ladi" [6, b.1970]. Bu o'rinda oshiqning oh chekolmay, g'am-qayg'ularini ichidan chiqazolmay har kun o'lgandan ko'ra, jallod qo'lida bir kun o'lishni afzal bilgani dardining qanchalik katta ekanligini bildiradi.

Yoki bo'lmasa shu mavzuda:

Birine ilkbahar olan

Diğerine kanlı kar tanesidir

Ölüm ki kaçınılmayan

Ölüm ki yapayalnız

Tarjimasi:

Birida bahor bo'lgan

Boshqasida qonli qor parchasi

O'lim qochinilmas

O'lim yakka-yu yolg'iz

Ushbu parchada shoirning o'limga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. O'lim bu kimlar uchundir bahor bo'lsa, kimlar uchundir qonli qor parchasi bo'ladi. Lekin nima qanday bo'lsa ham o'limning haq ekanligi, har bir tirik jonning vaqti-soati yetganda vafot etishini, o'limdan qochib bo'lmasligiga urg'u beradi.

Nurulloh Gench she'rlarida lirik qahramon tilidan o'z dardlarini izhor qilishga urinadi. Shuning uchun ham she'rlarida ishq, sog'inch va ayriliq kabi mavzularga ko'p bora duch kelinadi. Uning "Oh qancha kutay" ("Ah nice beklesem") [2, b.43] nomli she'ridan olingan quyidagi parchada lirik qahramonning yorini kuta-kuta chekkan iztiroblarini tabiat tasvir vositalari orqali juda go'zal suratda bayon qilgan.

Bu mevsim yaralı; güller kurumuş

Yapraq dala güvenmiyor; neyleyim

Tarjimasi:

Bu mavsum yarador, gullar qurigan

Yaproq shohga ishonmasa netayman?

Ushbu misralarda shoir tabiatni tasvirlar ekan, lirik qahramon yorini kutaverib ko‘zlari to‘rt bo‘ladi va fasl go‘yoki jangdan chiqqan yarador jangchidek horib, gullarning ham qurib qolgani, lirik qahramon esa mashuqasining kelishin umidini uza boshlab buni yaproqning shohga ishonmay qolganiga o‘xshatadi. Lirik qahramon obrazi haqida adabiyotshunos D.Quronov shunday fikrlarni bildiradi: “Ma’lumki, lirik asarning yetakchi obrazi — lirik qahramon. Biz lirik asarni o‘qiganimizda lirik qahramon holatini, kayfiyatini, kechinmalarning qanday hayotiy holatda yuzaga kelganligini, uning his-kechinmalariga turtki bo‘lgan voqelik fragmentlarini his qilishimiz, tasavvur qilishimiz mumkin. Biroq lirik qahramonning o‘zini, aytaylik, romandagidek o‘zining shakli shamoyili bilan jonli bir inson (ya’ni, obyektivlashtirilgan tasvir) sifatida ko‘z oldimizga keltirolmaymiz.” [1, b.179] Mazkur fikrdan kelib chiqiladigan bo‘lsa, she’rda lirik qahramonning his va kechinmalarining ustun turishiga guvoh bo‘lamiz. Romanda yozuvchi qahramonni atroflicha tasvirlab berishi, o‘quvchining hayolida qahramonni shakllantirish mumkin bo‘ladi. She’rda esa lirik qahramon shaxsi, ko‘rinishi, tasviridan ko‘ra ko‘proq uning o‘sha vaziyatdagi his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari ustun bo‘ladi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nurulloh Gench zamonaviy turk adabiyoti vakillaridan biri bo‘lib, uning she’rlarida ona vatanga bo‘lgan muhabbat, ishq, ayriliq va sog‘inch kabi mavzular asosiy o‘rinda turadi. She’rlarida tasavvufiy siymolar va ramzlarni ko‘plab uchratamiz. Shoir she’rlarida hayot mazmunini topishga harakat qiladi. Qalbidagi dardni she’rlarida lirik qahramon tilidan bayon qiladi va o‘quvchilarini mulohazaga chorlaydi. Ularning qalbiga xitob qiladi. Nurulloh Gench Najip Fozil Kisakurek, Sezai Karako‘ch, Jahid Zarifog‘lu kabi

zamonaviy turk she'riyatining yirik namoyandalarining izlaridan borib bugungi kunda o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlar qatoriga kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish, – Toshkent: Abdulla Qodiriy nashryoti, 2004.
2. Genç N. Dilek tutum okusun ahım arşa dokunsun – İstanbul: Timas yayınları, 2022.
3. Genç N. Omuzlarımda dünya – İstanbul: Timas yayınları, 2022.
4. Genç N. Mahrem ve münzevi – İstanbul: Timas yayınları, 2022.
5. Genç N. Çiçekler üşümesin – İstanbul: Timas yayınları, 2023.
6. Onat T. Fuzûlî divâni'nda âh kavrami. – Ankara: Turkish Studies — International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 8/9 Summer 2013.
7. Deveci Ü. Masalın Masalı'nda Yaşamın Gerçekliği, – İstanbul: İDİL, Cilt 2, Sayı 7 / Volume 2, Number 7.
8. Kotan Y. Nurullah Genç'in Şiirlerinde Dinî Unsurlar. – Erzurum: Atatürk Üniversit Sosyal Bilimler Enstitüsü. Yüksek Lisans Tezi: 2015.